

**“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJDA YO‘LOVCHI  
TASHISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**Butunov Dilmurod Baxodirovich <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat transport universiteti professori, PhD, professor  
dilmurodpgups@mail.ru

**Kamolov Jamoliddinbek Nodirbek o‘g‘li <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat transport universiteti magistratura talabasi  
[kamolovjamoliddinbek@gmail.com](mailto:kamolovjamoliddinbek@gmail.com)

**Isroilov Behruz isomiddin o‘g‘li <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat transport universiteti magistratura talabasi  
[bexrusbek20011221@gmail.com](mailto:bexrusbek20011221@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received:28.04.2025

Revised: 29.04.2025

Accepted:30.04.2025

**KALIT SO‘ZLAR:**

yo‘lovchi tashish,  
xizmat ko‘rsatish,  
yo‘lovchi aylanmasi,  
iqtisodiy samaradorlik,  
tarif siyosati.

Ushbu maqolada “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatida yo‘lovchi tashish xizmatlarini rivojlantirish masalalari o‘rganildi. Yo‘lovchi tashishda temir yo‘l transportining boshqa transport turlari bilan raqobatbardoshligini oshirish, xizmat sifati, infratuzilmani modernizatsiya qilish, tarif siyosati va marketing strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Statistik ma‘lumotlar asosida yo‘lovchi tashish hajmidagi dinamik o‘zgarishlar va soha istiqbollari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston temir yo‘llarida yo‘lovchi tashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.


**KIRISH.** Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlarida temir yo‘l transporti yirik va muhim transport infratuzilmasi sifatida shakllanib, iqtisodiy barqarorlikka, hududlararo bog‘liqlikni ta‘minlashga hamda yuk va yo‘lovchi oqimlarini samarali tashkil etish va boshqarishga katta hissa qo‘shmoqda. Ushbu transport tarmog‘i zamonaviy logistika

tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib, sanoat, savdo-sotiq va boshqa ko'plab sohalarning jadal rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston temir yo'llari tizimi esa mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha faol faoliyat yuritib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, eksport-import salohiyatini oshirish va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishda beqiyos rol o'ynamoqda. Temir yo'l tarmog'ining rivoji nafaqat sanoat korxonalari va tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratadi, balki aholi uchun xavfsiz, arzon va qulay transport vositasi xizmatlarini taqdim etadi.

Joriy 2025-yilda O'zbekistonda aholi soni 37,543 mln. kishi tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2030-yilga kelib 41 mln.dan oshishi kutilmoqda. E'tiborli jihati shundaki hozirda jami aholining 50,97% shaharda (19,139 mln.) qolgan 49,03% (18,403 mln.) qishloqda istiqomat qilmoqda. Shahar aholi sonining oshishi, o'z navbatida, rivojlanishning va globalizatsiyaning tabiiy natijasi sifatida ko'rilishi mumkin. Bu esa, transport tarmog'iga yuklamani oshiradi va yo'lovchilarning talablarini qondirish, ularga sifatli xizmat ko'rsatish kabi dolzarb masalalarni kundalik hayotda yanada muhimroq qiladi. Hozirgi sharoitda, transport infratuzilmasining samaradorligini ta'minlash, yo'lovchilarni qulay va xavfsiz tarzda xizmat bilan ta'minlash uchun yangi texnologiyalar va ilg'or boshqaruv tizimlarini joriy etish zaruriyatga aylangan. Jumladan 2020-yilda umumiy yo'lovchi aylanmasi 118.3 mlrd. yo'lovchi-km, 2021-yilda yo'lovchi aylanmasi 137 mlrd. yo'lovchi-km, 2022-yilda yo'lovchi aylanmasi 146.5 mlrd. yo'lovchi-km hamda 2023-yilda yo'lovchi aylanmasi 153.5 mlrd. yo'lovchi-kmni tashkil qilmoqda

(1-rasm).



**1-rasm. O'zbekiston temir yo'llarida 2020-2023-yillar kesimida umumiy yo'lovchi aylanmasi**

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan (1-rasm) ma'lumki, har yili yo'lovchi aylanmasi o'rtacha 7-9% dan ortib bormoqda. 2025-yilga kelib, O'zbekistondagi temir yo'l transportida

yo'lovchi tashish hajmi 38 mln. kishidan oshishi kutilmoqda, bu 2024-yilga nisbatan 7-10% ga oshish darajasini ko'rsatadi. Ammo umumiy 153,5 mlrd. yo'lovchi-km yo'lovchi aylanmasidan deyarli 2,54% ya'ni 3,9 mlrd. yo'lovchi-km temir yo'ldagi yo'lovchi aylanmasi ekanligini ko'rish mumkin. Shu sababdan, temir yo'l transporti orqali yo'lovchi tashishni rivojlantirish bugungi kunda juda muhim va dolzarb hisoblanadi. Ko'plab yo'lovchi tashish marshrutlarida kechikishlar va transport vositalarining samarali ishlamasligi, shuningdek, stansiyalar va terminal infratuzilmasining yaroqsizligi, ko'plab eski va eskirgan vositalarning ishlashi kabi muammolar mavjud.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari bugungi kunda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar predmetiga aylangan. Jumladan, X.O. Sodiqov o'zining [1] tadqiqotida temir yo'l tizimlarida logistika jarayonlarini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali samaradorlikni oshirish usullarini ko'rib chiqqan. U o'z ishida temir yo'l transportidagi ortiqcha yuklarni kamaytirish va yo'lovchi oqimlarini boshqarishni optimallashtirish orqali tizim samaradorligini oshirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar temir yo'l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

A.T. Shodmonov temir yo'l transportida yo'lovchi oqimlarini boshqarish va marshrutlarni optimallashtirishning ahamiyatini tahlil qilgan. Uning fikricha, samarali marshrutlar va yo'lovchi oqimlarini prognozlash orqali temir yo'l tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ushbu yondashuvlar temir yo'l tizimida yuzaga keladigan kechikishlar va muammolarni kamaytirish uchun zarur.

Innovatsion texnologiyalar va raqamli tizimlar temir yo'l transportini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. A.F. Xo'jaev (2022) temir yo'l tizimlarida yangi texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ko'rib chiqqan. U o'z tadqiqotida temir yo'l tizimlarida raqamlashtirish, axborot tizimlarining joriy etilishi, va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali samaradorlikni oshirishning imkoniyatlarini o'rgangan. Ayniqsa, real vaqt rejimida yo'lovchi oqimlarini boshqarish va elektron chipta sotish tizimlari temir yo'l transportining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali temir yo'l tizimining operatsion jarayonlari yanada tezlashadi va samarali bo'ladi.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashishda narx ustivorligi, yo'lovchilarga xizmati sifatini oshirish maqsadida ta'rif narxlarini oshirishga qaratilgan "Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyati samaradorligini oshirish" mavzusida O.G. Nabijonov tomonidan yillik yo'lovchi aylanmasi hamda ulardan keladigan foyda tahlil qilinib ta'riflarni oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi aytib o'tilgan. Lekin bu aks ta'sir ko'rsatib temir yo'ldan foydalanuvchi yo'lovchilar sonini kamaytirishiga olib kelish ehtimoli bor.

Temir yo'l transportining samaradorligini oshirishda logistika jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va narx siyosatini qayta ko'rib

chiqish muhim o'rin tutadi. Biroq, narxlarning oshirilishi va transportning ishonchiligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur, chunki yuqori narxlar yo'lovchilarning sonini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun bu kabi masalalarning kompleks yondashuvni talab qiladi.

#### NATIJA VA MUHOKAMALAR

Maqolada temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish uchun statistik tahlillar (1-jadval), sotsiologik tadqiqotlar va iqtisodiy modellashirish usullari qo'llanilgan. Statistik tahlil yo'lovchi tashish daromadlari, xarajatlar va soni dinamikasini o'rganadi. Sotsiologik tadqiqotlar orqali yo'lovchilarning talab va kutgan xizmat sifatlari o'rganilib, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Iqtisodiy modellashirish esa samaradorlikni baholash va prognozlashda yordam beradi. Tadqiqotning yakunida statistik, sotsiologik va iqtisodiy ma'lumotlar kompleks tahlil qilinib, temir yo'l transportidagi muammolarni aniqlash va yechimlar topishga yo'naltirilgan.

#### 1-jadval. Yo'lovchi tashish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

| Yillar | Yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'l-km | Yo'lovchi soni, mingda | Daromad, mlrd. so'm | Xarajat, mlrd. so'm |
|--------|------------------------------------|------------------------|---------------------|---------------------|
| 2020   | 1,794.9                            | 6,279.00               | 228.0               | 214.9               |
| 2021   | 3,130.2                            | 7,968.20               | 335.3               | 296.1               |
| 2022   | 3,549.4                            | 9,139.20               | 415.4               | 347.8               |
| 2023   | 3,962.7                            | 10,069.20              | 532.8               | 468.3               |

Manba: "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli bo'lgan "O'ztemiryo'lyo'lovchi" statistik ma'lumoti tahlili, 2020-2023-yillar.

##### 1. Yo'lovchi aylanmasi va sonining o'sishi:

2020-yildan 2023-yilgacha yo'lovchi aylanmasi va yo'lovchilar soni muntazam o'sish kuzatilgan. 2020-yilda yo'lovchi aylanmasi 1,794.9 mlrd.yo'l- kmni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,962.7 mlrd.yo'l- kmga yetgan, ya'ni aylanma ikki baravarga ortgan. Yo'lovchilar soni ham shunga mos ravishda o'sgan: 2020-yilda 6,279 ming nafar yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 10,069 ming nafarni tashkil etgan. Bu o'sish, temir yo'l transportining talab va taklifga mos ravishda rivojlanishini va yo'lovchi tashish tizimining kengayganligini ko'rsatadi.

##### 2. Daromad va xarajatlarning o'sishi:

Daromadlar ham yuqori sur'atlarda o'sgan: 2020-yilda 228,0 mlrd. so'mni tashkil etgan daromad, 2023-yilga kelib 532,8 mlrd. so'mga yetgan, bu o'sish 133% ni tashkil etadi. Bu, temir yo'l transporti tizimining nafaqat o'sishiga, balki xizmat ko'rsatish sifati va miqdorining ortishiga ham ishora qiladi. Xarajatlar ham mos ravishda oshgan: 2020-yilda

xarajatlar 214,9 mlrd. so'm bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 468,3 mlrd. so'mga yetgan. Xarajatlarning o'sishi, tizimni modernizatsiya qilish, yangi vositalar sotib olish, infratuzilmani yaxshilash kabi sarflar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

### 3. Daromad va xarajatlarning nisbatlari:

Daromadlar va xarajatlar orasidagi nisbatni ko'rib chiqsak, 2020-yilda daromad va xarajatlar orasidagi farq 13,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu farq 64,5 mlrd. so'mga yetgan. Ya'ni, temir yo'l transporti tizimi daromadlarini oshirish orqali xarajatlarni qoplashga erishgan. Bu o'sish, tizimning samaradorligini va rentabelligini yaxshilashga olib kelgan.

### 4. Samaradorlikning oshishi:

Daromad va xarajatlarning ortishi bir-biriga mos ravishda bo'lsa-da, xarajatlarning daromadlarga nisbatan yuqori o'sishi tizimni samarali boshqarish zaruriyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, daromadning ortishi, yo'lovchilar sonining va yo'lovchi aylanmasining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, bu transport tizimining kengayishi va yaxshilanishiga xizmat qilgan.

### 5. Prognozlar va kelgusi yillarda rivojlanish:

2020-2023-yillar orasidagi o'sish davom etayotganini inobatga olgan holda, kelgusi yillarda ham temir yo'l transporti tizimining o'sishini prognoz qilish mumkin. Yo'lovchi tashish daromadlari va sonining o'sishi, transport tizimi samaradorligini oshirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi. Biroq, xarajatlarning oshishi tizimni yanada samarali boshqarish va resurslarni oqilona taqsimlash zaruratini yaratadi.

Umuman olganda, 2020-2023-yillar davomida temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyati sezilarli darajada rivojlangan. Yo'lovchi aylanmasi, soni, daromad va xarajatlar o'sishi tizimning samarali ishlashini ko'rsatadi. Biroq, xarajatlarning yuqori o'sishi tizimning rentabelligini ta'minlash uchun ehtiyotkor boshqaruvni talab qiladi. Kelgusi yillarda o'sishni davom ettirish uchun transport tizimini modernizatsiya qilish va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

### XULOSA

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish uchun narxlarni oshirish yo'li bilan emas, balki temir yo'l infratuzilmasining samaradorligini oshirish orqali natijalarga erishish zarur. Bunda eng muhimi, yo'lovchi stansiyalaridan va vagonlardan maksimal darajada foydalanishdir. Masalan, temir yo'l stansiyalarida turli reklama agentliklari bilan hamkorlik shartnomalarini rasmiylashtirish, yo'lovchi vagonlarida esa brend mahsulotlari, gazli ichimliklar va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan shartnomalar tuzish orqali qo'shimcha daromad manbalarini yaratish mumkin. Bundan tashqari, temir yo'l transportidan foydalanayotgan yo'lovchilarga boshqa transport vositalariga nisbatan temir yo'lning ustun jihatlarini ko'rsatish zarur. Misol uchun, yo'lovchi vagonlarida ona va bola uchun alohida xonalar tashkil etish mumkin, chunki bunday xizmatlar avtomobil yoki

havo transportida mavjud emas. Shuningdek, vagonlarda yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida internet xizmatlari, portlar va elektr rozetkalarini taqdim etish ham foydali bo'lishi mumkin. Bu orqali yo'lovchilar uchun safar yanada qulay va samarali bo'ladi, bu esa temir yo'lining jozibasini oshiradi. Shu bilan birga, temir yo'l tizimining rivojlanishi uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, vagonlarda interaktiv displeylar, avtomatik kirish tizimlari va boshqa smart xizmatlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar temir yo'lni nafaqat samarali, balki yuqori sifatli xizmat ko'rsatadigan transport turi sifatida qayta shakllantirishga yordam beradi.

Natijada yo'lovchilarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish, ularni temir yo'l transportiga qiziqtirish va jamiyatda transport tizimining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Артынов А. П. Пригородные пассажирские перевозки / А. П. Артынов, Н. У. Дми триев. – М. : Транспорт, 1985. – 160 с. takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali samaradorlikni oshirish usullari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. O.G. Nabijonov, Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyati samaradorligini oshirish. Journal of international scientific research Volume 1, Issue 5, December, 2024 273-279
3. Кудрявцев В. А. Организация пассажирского движения / В. А. Кудрявцев, К. А. Белов, А. А. Грачев, А. С. Шумари. – СПб. : ПГУПС, 2002. – 52 с.
5. Сабуров М.Б. Мобильная бригада в транспортной логистике железнодорожного транспорта: инновационный подход и практические решения / Сабуров М.Б., Сатторов С.Б., Эргашев А.Ю. / Universum: технические науки. 2025. № 2-2 (131). С. 57-60.
4. Stats.uz elektron platformasi.
5. "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli bo'lgan "O'ztemiryo'lyo'lovchi" statistik ma'lumoti tahlili
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PQ-168-sonli Qarori. "Temir yo'l transportini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz>
7. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ statistik ma'lumotlari. (2024). Rasmiy sayt: <https://railway.uz>